

YO‘L CHEKKALARIDAGI YO‘L BELGILARI ,REKLAMALARNI AKS ETTIRUVCHI PESHTAXTALAR,MANITORLAR YO‘LOVCHI UCHUN QANDAYIN AHAMIYATLI.

Shonazarov Asadbek Xushnud o‘g‘li

Urganch davlat pedagogika instituti harbiy

Vatanparvarlik loyihalari koordinatori

Samandarova Farangiz Aybek qizi.

Urganch davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya . Ushbu maqolada yo‘l belgilari haqida, chunonchi yo‘l harakatiga xavf tug‘diradigan omillar , yo‘l chekkalaridagi afisha va Manitor reklama vositalari haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lishingiz mumkin.Qolaversa, aynan yo‘l chetidagi reklama mahsulotlaring beradigan halaqti va foydasi haqida bilimlarga ega bo‘lishingiz mumkin.

Kalit So‘zlar: Yo‘l belgilari , manitor, reklama, afisha, ogohlantiruvchi , himoyalovchi, buyuruvchi va taqiqlovchi belgilar va boshqalar .

Yo‘l belgilari — mashina boshqaruvchilari, piyodalar, yo‘lovchilar, yo‘l ta‘mirlovchilar, chorva mollarini haydab boruvchilarning avtomobil yo‘llari va shahar ko‘chalarida harakatlanishini tartibga solish hamda ularni xavfli manzillar haqida ogohlantirish uchun tegishli joylarga osib qo‘yiladigan shartli belgilar hisoblanadi. Yo‘llarda harakatlanishni tartibga solishga har doim to‘xtovsiz harakat qilingan.Har bitta avtomobil va boshqaruvchi va piyodalarga qarab ular uchun qoidalar ham turlicha bo‘ladi.Yo‘l belgilaridagi grafiklar, texnik tafsilotlar 1968-yilda Venada o‘tkazilgan „Yo‘l belgilari va signallari haqidagi konvensiya“ hamda bu konvensiyani to‘ldiruvchi Yevropa kelishuvi (1971, Jeneva) talablariga ko‘ra ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasida 2001-yilda xalqaro me‘yorlar asosida, mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda yangi „Yo‘l harakati qoidalari“ ishlab chiqildi. Bu qoidalarga yo‘l belgilarining quyidagi asosiy 4 ta guruhi:

- ogohlantiruvchi
- imtiyoz
- taqiqlovchi
- buyuruvchi

va undan tashqari axborot-ishora, servis, qo‘shimcha axborot belgilari kiritilgan.

Ogohlantiruvchi belgilar

Ogohlantiruvchi belgilar — yo‘l harakati ishtirokchilariga yo‘lning harakatlanishda holatga qarab chora ko‘rishni talab qiladigan xavfli qismlarining joylashuvi hamda ularning xususiyatlari to‘g‘risida ogohlantirish berish uchun qo‘llaniladi.

Imtiyoz belgilari

Imtiyoz belgilari — chorrahalarda, alohida joylashgan qatnov qismlari kesishgan joylarda, shuningdek yo‘lning tor qismida yo‘l harakati qatnashchilarining harakatlanish navbatini belgilash uchun qo‘llaniladi.

Taqiqlovchi belgilar

Taqiqlovchi belgilar — yo‘l harakatiga ma‘lum cheklashlar kiritish yoki ularni bekor qilish uchun qo‘llaniladi.

Buyuruvchi belgilar

Buyuruvchi belgilar — transport vositalariga ko‘rsatilgan yo‘nalishda yoki faqat ma‘lum yo‘nalishlarda harakatlanishlari lozimligini buyuradi.

Axborot-ishora belgilari

Axborot-ishora belgilari — harakat qatnashchilariga yo‘ldagi harakat tartibi xususiyatlari hamda aholi yashaydigan joylar va manzillarning joylashuvi haqida ma‘lumot berish uchun qo‘llaniladi.

Servis belgilari]

Servis belgilari — transport vositalari, yo‘lovchilar va haydovchilarga xizmat ko‘rsatish joylari xaqida ma‘lumot berish uchun qo‘llaniladi.

Qo‘shimcha axborot belgilari

Qo‘shimcha axborot belgilari — ular bilan birgalikda qo‘llanilgan belgilarga aniqlik kiritish yoki ularning ta‘sirini cheklash uchun qo‘llaniladi



Yo‘l chekkalaridagi bunday belgilar har doim ham yo‘llardagi xavf-hatarlarni oldini olib turadi. Tirbandliklarni yuzaga kelishining oldini oladi. Aynan ularning maqsadi ham aslida yo‘ldagi harakatlarni tartibga solib turish va bir maromda ishlab turish uchundir. Agar bunday bo‘lmaganda edi yo‘l chekkalaridagi svetaforlar bir kunda 24 soat ishlamagan bo‘lar edi.

Biz maqolamizda aynan yo‘l belgilari haqida fikr yuritmoqchi emasmiz, aksincha yo‘llarda mavjud boshqa belgilar haqida fikr yuritmoqchimiz.

Agar , e‘tibor beradigan bo‘lsak odam gavjum bo‘ladigan ko‘chalar borki , ular reklama maskaniga aylanib ulgurgan. Agar markaziy ko‘chalar bo‘ylab yuradigan bo‘lsak yo‘l chetidagi har xil manitorlarga ko‘zimiz tushadi. Ayan bu manitorlarda turli hildagi

reklamalar aks ettirilgan bo'ladi. Jumaladan, do'konlar reklamasi, turli hil salonlar avtasalonlar va hokazo.

Ko'chalarda harakatlanishimiz evaziga yangi chiqqan xabarlar va yangiliklardan boxabar bo'lamiz. Chunonchi, ayrim sanatkorlarimizning konsert dasturlari va turli xildagi premyeralar ham shu jumladan.

To'g'ri ko'chalarda bo'ladigan bunday holatlar odatiy. Chunki har bir qadamimizda bu kabi unsurlarga ko'zimiz tushadi. Ho'sh ozgina fikr yuritib ko'raylik va masalaning ikkinchi tarafini ko'rib chiqaylik.

Reklama afishalari va manitorlarning yangiliklardan xabar berishi yaxshi. Bu insonlarning kundalik ehtiyojiga aylanib qoldi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, bu avtomobil haydovchilari uchun harakatga noqulayliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, haydovchining e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Bu esa oqibati yomon bo'lgan noxushliklarga olib kelishi mumkin. Avtomobil boshqarish jarayonida diqqatning bo'linishi turli hildagi avtohalokatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Biz bu gapimiz bilan yo'llardagi xoshiyalar yoki monitorlarga cheklovlar va qoralovlar qo'ymoqchi emasmiz, aksincha biroz bo'lsada me'yor talab qilmoqchimiz.

Chunki, ayrim shaharlar aynan ana shu manitorlari bejirim hoshiyalari bilan mashhur. Aynan shular bilan shaharning mashhurligi saqlanib turibdi. Biroq, shunisi e'riborimizni tortadaki dunyoning mashhur joyiga aylanib ulgurgan Sankt-Peterburg shahrida bunday reklama vositalariga cheklovlar qo'yilgan. Bu cheklovlar shahar mshhurligini yo'qotmadi aksincha, shaharda bo'lishi mokin bo'lgan ko'ngilsizliklarning oz bo'lsada oldini olishga xizmat qildi. Shaharni xavf-hatarlardan holi qildi.

Shunday ekan, ko'chalardagi reklama vositlarining ko'payib ketmasligiga jiddiy e'tibor qilishimiz kerak. Chunki, avtomobil harakati paytida, haydovchining butun diqqat e'tibori yo'lga qaratilgan bo'lishi lozim. Avtomobil haydovchisi uchun bunday vaziyatda har narsa ortiqcha sanaladi.

Reklama tarqatishga keladigan bo'lsak esa hammaning qo'lida gadjetlar mavjud. Hammaning qo'lida internet, ijtimoiy tarmoq, telefon mavjud. Reklama mahsulotlarning keng tarqalishiga ham aynan gadjetlar xizmat qilavergani ma'qul.